XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-iyun VI-112-72-7-101-K/24 Pastdarg‘om tumani

Xalq deputatlari tumani Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-99-142-7-101-K/23-sonli “Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli ““Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gilar hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli ko‘rsatma xatlari ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish va suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish hamda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-99-142-7-101-K/23-sonli “Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorining 1-2-ilovalari ya’ni mahalliy budjet daromadlar (suv solig‘ining prognoz qilingan so‘mmasi) va xarajatlari (Suv yetkazib berish xizmati DM saqlash xarajatlari) 40 foizga teng miqdorlarda oshirilsin.

3. Quyidagidalar:

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-99-142-7-101-K/23-sonli “Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq:

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-99-142-7-101-K/23-sonli “Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Aliyev va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Pardayev hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari K.Allamuratovlar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

MURATKABILOV
VAXOBJON
ABDUGANIYEVICH

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyundagi
VI-112-72-7-101-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani mahalliy budjetining daromadlarning 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

TR	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	**181 972 900**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	48 960 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	12 665 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	23 049 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	36 190 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 810 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	17 556 000
7	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	300 000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 308 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 380 900
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	10 744 000
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	10 820 000
12	Yig‘imlar	5 020 000

14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	170 000

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyundagi
VI-112-72-7-101-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani mahalliy budjeti xarajatlarining 2024-yilgi asosiy ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

TR	Sohalar nomi	Mablag‘
	Jami xarajatlar	**312 054 184**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	49 085 663
2	Sog‘liqni saqlash	136 587 824
3	Madaniyat bo‘limi va tasarrufidagi tashkilotlar	9 645 054
4	Tuman qishloq xo‘jaligi sohasi tashkilotlari	4 533 750
5	Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM	7 866 000
6	Yoshlar siyosati va sport tashkilotlari	17 783 055
7	Tuman Soliq inspeksiyasi	7 029 109
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	8 341 308
9	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 930 949
10	Tuman hokimligi	69 251 472